




Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 28-mart, payshanba,

38 (23.915)-son



www.zarnews.uz

<https://www.facebook.com/zarnews.uz>

@zarnews_uz

https://twitter.com/zarnews_uz

KUN
HIKMATI

Salom
berishni
odat qilish
ma'naviyatning
birinchi belgisi

Yurtboshi bilan iftorlik

Butun dunyoda bo'lgani kabi yurtimizda ham Ramazon oyi o'zgacha shukuh va tarovat, xayru baraka bilan davom etmoqda. Bu borada davlatimiz rahbarining tegishli qarori qabul qilinib, ushbu qutlug' oyda amalga oshiriladigan tadbirlar, xayriya ishlari belgilab berilgan edi.

Ayni paytda mamlakatimizdagi 1600 dan ziyod masjidda Qur'oni karim xatm qilinyapti. Saxovat-pesha, saxiy insonlarning xayru ehsонлари yanada ko'paymoqda. Zero, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamming "Sadaqaning eng afzali Ramazonada qilinganidir" (Imom Termiziyy rivoyati), degan hadislariga amal qiluvchi yurtdoshlarimizning soni ortib borayotgani tahsinga loyiq.

Ro'za tutganlarga iftor qilib berishning ajri nechog'lik ulug' ekanligi xususida to'xtalgan Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday degan edilar: "Kim bir ro'zadorga iftorlik bersa, unga o'sha ro'zadorning ajricha ajr bo'ladi, ro'zadorning ajridan esa biror narsa kamaytirilmaydi" (Imom Termiziyy va bosqalar rivoyati).

25-mart kuni mamlakatimizning barcha hududlarida, jumladan, viloyatimizda ham iftorlik dasturxonasi yozildi. Namangan viloyatidagi iftorlikda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi. Davlatimiz rahbari mamlakatimiz musulmonlarini Ramazon oyi bilan yana bir bor tabrikadi.

Bugun barchamiz – muhtaram ulamolarimiz va nuroniylarimiz, jamoatchiligidan vakillari birgalikda iftor qilmoqdamiz. Yagona, ahil oila bo'lib yashayotgan ko'pmillati O'zbekiston xalqi bugun go'yoki bir das turxon atrofida jam bo'lib o'tiribdi. O'yaymanki, bu savobli tadbir inson qadrini ulug'lashga, o'sib kelayot-



gan yoshlarimizni mana shunday olijanob ruhda tarbiyalashga xizmat qiladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yurtboshimiz bu ishlarga hissa qo'shayotgan imon-diyonatlari, saxovatli yurtdoshlarimizga tashakkur aytdi. Mamlakatimizda mutlaqo yangi ijtimoiy himoya tizimi shakllanayotgani qayd etildi. Bu tizim birinchini navbatda ehtiyojmand kishilarga, jumladan, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, yetim qolgan, o'zgalar parvarishiga muhtoj insonlarga har tomonlama e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatishga qaratilgan.

Bu haqda so'zlar ekan, Shavkat Mirziyoyev Alisher Navoiy bobomizning "Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay, oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa,

obod aylagay" degan hikmatini yodga oldi.

Bunday qarash muqaddas dinimizning asl insoniy mohiyati bilan hamohangdir. Haqiqatan ham, chinakam musulmon o'ziga ravo ko'rgan narsani boshqalarga ham ravo ko'radi.

Yurtboshimizning nuroniylar, muhtoj kishilar, ulamolar bilan birgalikda iftorlik qilishi oldin kuzatilmagan bir holat bo'ldi. Xalq bilan yonna-yon bo'lgan davlat rahbarining chinakam xalqparvarligi mana shu singari yaqinlik va samimiylikda yana bir bor namoyon bo'ldi.

**Zayniddin ESHONQULOV,
O'zbekiston musulmonlari idorasasi
Samarqand viloyati bosh imom xatibi.**

Pastdarg'omlik yoshlarga 742 hektar yer maydoni beriladi



Davlat xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi boshlig'i A.Axmedovning yoshlar bilan navbatdagi uchrasnuv Pastdarg'om tumanida o'tkazildi.

Uchrasnuv avvalida yosh tadbirkor va hunarmandlarning mahsulotlari ko'rgazmasi bilan tanishildi. Shundan so'ng pastdarg'omlik yoshlarning tadbirkorlik, yer ajratish, ishga joylashish, sport bilan shug'ullanish uchun sharoit yaratish, kitobxonlik va kompyuter savodxonligi masalalari yuzasidan murojaat va takliflari eshitildi.

Jumladan, Oq oltin mahallasidagi 51-maktab o'qituvchisi Dilshoda Isroilova mahallada sportga qiziquvchilar ko'pligini aytib, dzyovo va nuroniyalarga esa sog'lomlashtirish to'garagi tashkil qilgani hamda bu ishlarni davom ettirish uchun sport zal qurishda yordam so'radi. Boshqarma boshlig'i ushbu taklifi qo'llab-quvvatladi va mahallaga sport zal qurishga ko'mak berilishini bildirdi.

Mehnat mahallasida yashovchi Fathulla Nurmonov esa o'tgan yili dehqonchilik qilib, daromad topishi uchun 30 sotix yer berilgani va hozirda 10 nafr mavsumiy ishchisi borligi, yaqinda Germaniyada malaka oshirib qaytgach, faoliyatini kengaytirishni aytib, qo'shimcha yer so'radi. Uning bu taklifini mas'ullar o'rganib, tegishli tartibda yordam berilishi ma'lum qilindi.

Uchrasnuvda yoshlar asosan yer ajratish masalasida murojaat qildi va tuman hokimligi mas'ullari joriy yilda yoshlarga dehqon aytib, dzyovo va nuroniyalarga esa sog'lomlashtirish to'garagi tashkil qilish uchun ko'rsatiladigan ko'mak xususida ma'lumot berdi.

- Joriy yil tuman hokimligi zaxirasiga qaytarilgan 742 hektar yer maydoni yoshlarga dehqon xo'jaliklari tashkil qilish uchun ajratiladi, - deydi tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rmosari B.Yoqubov. - Tumanda 107 ta mahalla bor. Sektorlar kesimida ushbu mahallalardagi ishsiz va yerdan unumli foydalanan istagini bildirgan tashabbuskor yoshlarga yer beramiz.

Tadbir davomida yoshlarni kasb-hunarga o'qitish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish va bandligini ta'minlash masalalari haqida so'z yuritilib, faol yoshlarga kitoblar sovg'a qilindi.

F.RO'ZIBOYEV.

Bitta ovoz 30 ming so'm

tashabbusli budget yo chikka, yo pukkami?

Odamlar gavjum joy borki, "sizdan bitta ovoz, bizdan 30 ming so'm pul", qabilidagi gap-so'zlar tinmaydi.

Ayrimlar bu noto'g'ri degan fikrga boromoqda. Nima emish – bunday adolatsiz yo'il bilan g'olib bo'lish boshqalarning haqini poymol qilish bilan barobar. Bundan tashqari, aholisi kam, ammo infratuzilmasi nochor holatdagi hududlar nima qilishi kerak, degan iddaolar o'ttaga tashlanadi.

Bu fikrlar to'g'ri yoki noto'g'riligi yuzasidan bahslashmoqchi emasmi. Garchi bu yerda hech qanday qonun, jilla qursa, tartib buzish bo'lmasa-da, norozilik borligi rost. Lekin masalaning mohiyatini, muammoni hal qilish bu orqali bo'lmasa, boshqa yo'li borligi haqida o'ylab ko'rmasapsiz-ku.

MOZIYGA QAYTIB ...

Aslan olganda jamiyat hayotida davlat budjeti muhim, balki eng muhim ahamiyatga ega. Aksar davlatlarda u ochiq va uning sarflanishi bo'yicha hisobdarlik bor. Taassufki, bizda yillardan davomida buning aksi bo'lib keldi.

Lekin Shavkat Mirziyoyev prezident bo'lgach, davlat va mahalliy budgetni muhokama qilishda va xarakatlarni tartibga solishda jamoatchilik nazoratini yo'iga qo'yishga e'tibor berildi. Bu borada davlat rahbarining 2018-yil 22-avgustdagi "Budget ma'lumotlarining ochiqligini va budget jarayonida fuqarolarining faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim ahamiyat kabs etdi.

Yodingizda bo'lsa kerak, Prezidentning 2021-yil 13-aprel kuni "Budget jarayonida fuqarolarining faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, budget shakllanishi jarayonida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish maqsadida shahar va tumanlar budjetlari tasdiqlangan umumiy xarakatlarning 5 foizini (biroq kamida 6 milliard so'm) jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish bo'yicha yangi tartib bosqichma-bosqich joriy etilishi belgilandi.

(Davomi 3-sahifada) »»

Yashil makon: KO'CHAT EKISH DAVOM ETMOQDA

"Yashil makon" umummiliy loyihasi doirasida mahallalar, tashkilot va korxonalar tomonidan ko'chatlar ekilib, bog'lar barpo qilinmoqda.

Jumladan, Samarqand shahar Ko'ksaroy maydonidagi bog da viloyat hokimligi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, XDP, "Milliy tiklanish" partiyalari vakillari va viloyatdagi tijorat banklarining mas'ullari yuzga yaqin daraxt ko'chati ekishdi.

Oqdaryo tumanining Taraqqiyot mahallasida istiqomat qiluvchi fuqaro Uchqun Jumayev tashabbusi va homiyligida hududdagi "Qurbanobod" qabristoni obodonlashtirildi, mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi.



Kattaqo'rg'on tumanida "Jomboy nafasi" nomli ijtimoiy-iqtisodiy, ma'rifiy jurnal chop etila boshlandi.

Ishtixon tumanida sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamaat salomatligi bo'limi uchun yangi bino qurishga kirishildi.

Narpay tumanidagi Mang'it mahallasining 1,7 kilometrlik ichki yo'llariga asfalt qoplamasi yotqizildi.

Payariq tumanidagi "Ko'ktepa zamini" fermer xo'jaligi dala maydonlariga boruvchi 1,5 kilometr uzunlikdagi ariqlar betonlashtirildi.

Urgut tumanida "Mirzaqishloq" MFY hududida fuqaro E.Sh. hech qanday huquqiy hujjatlarsiz sug'oriladigan 0,2 hektar yer maydonini o'zboshimchalik bilan egal-lab olib, 144 kvadrat metr qismida noqonuniy qurilish amalga oshirgani aniqlandi.

Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi axborot xizmati.

Davlatimiz rahbari boshchiligidagi joriy yil 18-yanvar kuni "2024-yilda investitsiya, eksport va xalqaro hamkorlik yo'nalishlari bo'yicha Vazirlar Mahkamasi hamda vazirlik va idoralarning ustuvor vazifalari to'g'risida" o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida amalga oshiriladigan aniq chora-tadbirlar belgilab berildi.

Eksport geografiyasi va hajmi kengayadi

investitsiya loyihalari salmog'i ham yuksaladi

Bu boroda viloyatimizda amalga oshiriladigan ishlardan oldin 2023-yilda ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tish maqsadiga muvofiq. Chunki o'tgan yilda xorijiy investitsiyalar jalb qilingan loyihalari doirasida 632 million dollar miqdorida investitsiyalar o'zlashtirildi. Belgilangan reja 113 foiziga bajarilib, o'sish sur'ati 2022-yiliga nisbatan 121 foizini tashkil etdi.

O'zlashtirilayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarning 58 foizi Xitoy, 15 foizi Turkiya, 9 foizi Kipr, 7 foizi BAA, 6 foizi rossiyaliga va boshqa investorlar hissasi ga to'g'ri keladi.

Umumiy qiymati 529,1 million dollar bo'lgan 15 ta xorijiy investitsiyalar ishtiroyidagi yirik loyihalari ishga tushirilib, 2 mingdan ortiq ish o'rinnari yaratildi.

Misol uchun, Kattaqo'rg'on tumanida Xitoyning "Hengyuan Cement" MChJ XK tomonidan 340 million dollar investitsiyalar hisobiga sement ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirildi. Natijada 700 dan ortiq yangi ish o'rinnari hamda yillik 3 million tonna sement mahsulotini ishlab chiqarish quvvatlari yaratildi.

Viloyatda 590 ta eksportyor korxonalar tomonidan 656 (TIF TN) dan ortiq turdagi 584 million dollarlik sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport qilindi. Bu ko'sratkich 2022-yilning mos davriga nisbatan (19,5 million dollar) 103,5 foizni tashkil etdi.

Umuman, eksportga jo'natilayotgan mahsulotlar turi 665 dan ortdi hamda eksport geografiyasidagi davlatlar soni 61 taga yetdi.

Shuningdek, 2023-yilda ishga tushirilgan korxonalaridagi ishlab chiqarish hisobiga 16 turdag'i (qurilish lakkari-bo'yoqlar, ehtiyoj qismilar) yangi mahsulot eksportga qo'shildi.

Aval tashkil etilgan, lekin so'nggi ikki yil davomida eksportni amalga oshirilmay kelgan 7 ta hamda yangi ishga tushirilgan 8 ta korxonaning tashqi savdo faoliyatini yo'iga qo'yishga ko'maklashidi. Natijada bu 15 ta korxona tomonidan qo'shimcha 4 million dollarlik mahsulotlari eksportga yo'naltirildi.

2023-yil yakuni bilan eksport qilingan sanoat mahsulotlarining 16 foizi (106,6 million dollar) to'qimachilik mahsulotlari, 13 foizi (8,1 million dollar) metallar va ularidan tayyorlangan buyumlar, 4 foizi (27,6 million dollar) kalava ip mahsulotlaridan iborat.

2024-yilda investitsiya va eksport yo'nalishida amalga oshiriladigan ishlar hajmi bundan kam bo'lmaydi.

Jumladan, 2024-2026-yillarda xorijiy investitsiyalar ishtiroyida umumiy qiymati 2,5 milliard dollar bo'lgan 64 ta loyihaning manzilli ro'yxati shakllantirildi. Ushbu loyihalari doirasida xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilishi joriy yilda 1,1 milliard dollarga yetkaziladi (yanvar oyining o'zida 93,8 million dollar o'zlashtirildi).

Bunga erishishda quydagi ishlar tashkil qilindi:

Xorijiy davlatlar bilan hamkorlik munosabatlari tizimli va tartibli mexanizm asosida yo'iga qo'yiladi.

Yani, har bir davlat bilan birga barcha yo'nalishlarda hamkorlikni yo'iga qo'yuvchi hamda aynan shu mamlakat tilini mukammal bilgan va shu davlatda tajriba va bilim orttirgan mutaxassislarining viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasiga ishga qabul qilinishi rejalashtirilgan.

Viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasidagi barcha xodimlar faoliyati qayta ko'rib chiqildi. Bugungi kunda davlatlar, tarmoqlar hamda shahar va tumanlariga mas'ul xodimlar biriktirilib, samarali ish tashkil etilmoqda.

Viloyat miqyosida va har bir shahar, tumanlarda investitsiyalarni jalb qilishda jizobdarlikni oshirishga alohida ahamiyat qaratildi.

Jumladan, viloyatning investitsiya salohiyatini namoyon qiluvchi barcha ko'sratkichlar Jahon hamjamatiqa taqdim etib boriladi.

Shahar va tumanlarda investitsiyalarni jalb etish uchun sharoitlar yaratish maqsadida sanoat maydonlari kengaytrib boriladi, investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun samarasiz foydalanimayotgan davlat obyektlari investorlarga taklif qilib boriladi.

Shahar va tumanlarning o'sish nuqtalarini, tabiiy resurslari va drayver yo'nalishlari dan kelib chiqib, muayyan bir davlatga yoki



yo'nalishga ixtisoslashgan sanoat zonalari va texnoparklar tashkil etiladi.

Viloyat delegatsiyasining Xitoy Xalq Respublikasiga amalga oshirgan xizmat safarlar davomida provinsiya partiya kotiblari, gubernatorlari va bir qator yirik kompaniya vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

Natijada umumiy qiymati 5 milliard dollarlik 200 dan ortiq investitsiya loyihalari ni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. O'tgan yili xorijiy kredit liniyalarini o'zlashtirishda yaxshi tajriba orttirdik. Jumladan, Abu-Dabi taraqqiyot jamg'armasi mablag'lardan 45,8 million dollar o'zlashtirgan bo'lsak, joriy yilda 60 million dollar o'zlashtirildi.

Shu bilan birga, joriy yilda xorijiy brendlarni olib kelish hamda viloyatimizda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan yirik investitsiya loyihalari xorijiy hamkorlarni jalb qilish orqali yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish choralarini ko'rildi.

Misol uchun, Bulung'ur tumanida xorijiy brendlarni olib kelgan holda ketchup va sous ishlab chiqarish loyihasi amalga oshiriladi.

Joriy yilda 900 million dollar (sanoatda 640 million dollar, qishloq xo'jaligida 260 million dollar)lik mahsulotlari eksportga yo'naltirish prognosi ishlab chiqildi. 2023-yilga nisbatan 154 foizga o'sishi rejalashtirigan bu ko'sratkich ijrosi quydagilar hisobiga amalga oshiriladi:

2024-yilda 50 dan ortiq yangi korxonalar eksport faoliyatiga jalb qilinishi natijasida 10 dan ortiq yangi turdag'i mahsulotlari, jumladan, sement, armatura, jyida, san-tekniqa fittinglari, prut va kollektorlar, mis kabellari, tovuq panjasini hamda o'simliklarni kimyivoq himoyalash vositalari eksportga chiqarilib, ularning hajmi 20 million dollarga yetkaziladi.

Shuningdek, Vengriya, Xitoy, BAA va AQSh kabi davlatlarda savdo uyulari tashkil etiladi va qo'shimcha 30 million dollarlik mahsulotlari eksportga chiqariladi.

Xorijiy investitsiyalar hisobidan 2017-2023-yillarda rekonstruksiya va modernizatsiya ishlari amalga oshirilgan yirik sanoat korxonalarini hamda joriy yilda faoliyatini yo'iga qo'yadigan yangi korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlarning 92 million dollarlik qismisi eksportga chiqarilib, ularning hajmi 20 million dollarga yetkaziladi.

Shuningdek, Vengriya, Xitoy, BAA va AQSh kabi davatlarda savdo uyulari tashkil etiladi va qo'shimcha 30 million dollarlik mahsulotlari eksportga chiqariladi.

Xorijiy investitsiyalar hisobidan 2017-2023-yillarda rekonstruksiya va modernizatsiya ishlari amalga oshirilgan yirik sanoat korxonalarini hamda joriy yilda faoliyatini yo'iga qo'yadigan yangi korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlarning 92 million dollarlik qismisi eksportga chiqarilib.

To'qimachilik sohasida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi ilg'or texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha amalga oshirilgan loyihalari doirasida eksport tarkibidagi kalava ip ulushini kamaytirib, mato hajmini oshirish yuzasidan ajratiladigan subsidiyalar olishda eksporty korxonalarga yaqidannan ko'mak berib boriladi.

Shahboz QUVVATOV, viloyat hokimining o'rinnbosasi - investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig'i kotibiyati mudiri.

Bu yil 60 million dollarlik xorijiy kredit liniyalari o'zlashtiriladi

"Tashabbusli budget":

2023 – YILDAKI LOYIHALARNING 80 GA YAQINI TUGATILMAGAN

ayrimlarida ish boshlanmagan

2023-yilgi "Tashabbusli budget" loyihasida viloyatimizda aholi tomonidan suv, elektr energiyasi, yo'l, maktab kabi yo'nalishlar, mahallalar infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha birinchi mavsumda 2730 ta, ikkinchi mavsumda esa 2813 ta loyiha ovozga qo'yilgan. Shundan birinchi mavsumda 298 ta loyiha ko'p ovoz olgan va 290 tasi bilan shartnomaga tuzilgan. Ikkinchi mavsumda esa g'olib chiqqan 113 ta loyihadan 111 tasi uchun shartnomaga imzolangan. Birinchi mavsumda to'liq bajarilgan loyihalari 256 tasi tashkil etsa, ikkinchi mavsumdagilardan 69 tasi bajarilgan. Vaholanki, har ikki mavsumdagi 287 ta loyiha uchun pudratchilarga mablag' to'liq to'langan. Bugungi kunda viloyatda "Open budget" axborot portalini orqali o'tgan yilning 1-mavsumida 34 ta va 2-mavsumida 44 ta loyiha turli sabablarga ko'ra tugatilmagan.



"Yagona buyurtmachi xizmati" DUK va pudratchi tashkilot "MINOR AGRO QURILISH" MChJ tomonidan shartnomaga imzolangan. Qiymati 1 milliard 140 million so'mlik ushbu loyiha hamon to'liq bajarilman. Mablag' yetmaganligi sababli hojatxona qurilmagan. Maktab qozonxonasi o'rnatilgan isitish tizimi bir kun ishlagach, yelim suv quvurlari qiyshayib qolgan.

Ta'mirlash ishlari olib borilgan sinflarning devorlari mog'orlagan. Isitish tizimlari turli o'chamlarda sifatsiz o'rnatilgan, yo'lkardarda terilgan plitkalar atrofi ochiq. Qozonxona pechlari mutlaqo yaroqsiz, har tomonidan suv



Ushbu kamchiliklar "Yuksalish" umummilliy harakati viloyat bo'limi tomonidan Taraqqiyot strategiyasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha viloyat jamoatchilik guruhi, O'zbekiston NNTMA viloyat hududiy bo'linmasi, jurnalistlar va jamoatchilik vakillari ishtiroyidagi o'rganishlarda aniqlandi.

Misol uchun, Samarcand shahridagi 24-maktabda qurilish va ta'mirlash ishlari amalga oshirish, atrofini 600 metr devor bilan o'rash, sport zal va faollar zaliga issiqlik tizimi o'rnatish belgilangan.

Boshlang'ich sinflar uchun 10 ochkolihojatxona, bufet va omborxonada qo'shimcha xonalar qurish, sport zalning kiyinish xonalarini ta'mirlash ham rejalashtirilgan. Maktab binosi fasadini ta'mirlash va hovlisida 500 metr kvadrat plitka terish (quyosh paneli o'rnatish bilan) ishlari uchun

oqib yetibdi.

950 million so'mlik loyiha doirasi

da Samarcand shahridagi 35-maktab

hududini obodonlashtirib, asfalt

qilish hamda sportzalda issiqlik tizimi

va barcha sifonalarida zamonaviy

eshik romlari o'rnatish (quyosh

paneli o'rnatish bilan) majburiyatini

"ABDUMANNON NUX-QODDARYO" xu-

susiy korxonasi o'z zimmasiiga olgan. Biroq hanuzgacha ishlari to'laqoni bajarilman.

Samarqand shahar Navbog'chixon mahallasidagi ko'chalarga 250 ta simyog'och 4 ta transformator va 20 ming metr elektr simlari o'rnatish belgilangan. Qiymati 800 million so'm bo'lgan loyiha 2023-yilning ikkinchi mavsumida g'olib bo'lgan, ammo ushbu mahallada haligacha ishlari boshlanmagan.

Shuningdek, Qo'shrabot tumani Shova mahallasida mini stadion, Urgut tumani Rahmatobod mahallasida 120 o'rinnli bino, Mirzabog'lon mahallasida 14-maktab uchun qo'shimcha bino qurish, G'o'slik mahallasida eski maktab o'rniiga yangisini qurish ishlari muddatidani kechikmoqda va qurilishlarning sifatsizligi yuzasidan aholi tomonidan e'tirozlar bildirilgan.

O'rganishlar davomida "Open budget" axborot portalini orqali 2023-yilning 2-mavsumida rejalashtirilgan, ammo ishlari bugungi kunga qadar yakunlanmagan qator loyihalari borligi ma'lum bo'ldi. Xususan, Samarcand shahar Gagarin ko'chasi, 43-uy pastlikda joylashgan hamda kuz-qish mavsumida suv to'planayotganligi sababli hududning irrigatsiya tizimini yaxshilash va obodonlashtirish zarur. Samarcand shahar 3-o'ilaviy poliklinikaning Motrid filialida zamonaviy 2-qavatlari bino qurish, viloyat suv sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi (Delfin)ning qozonxonasi va bino tom qismini ta'mirlash (quyosh paneli o'rnatish bilan) kabi loyihalari boshlanmagan.

Elyor HAMROYEV,
"Yuksalish" umummilliy harakati viloyat bo'linmasi rahbari.

Agrofirmaning 352 million so'mlik avtomobili xatlandi

Navbat "Captiva", "Cobalt" va "Damas"ga

Fuqarolik ishlari bo'yicha Urgut tumani sudi-

ning 2023-yil 22-fevraldagi ijro varaqasiga asosan,

qarzdor "J.X.B" agrofirmasidan undiruvchi

"Mikrokreditbank" ATB Urgut filiali foydasiga 583

million so'mga yaqin kredit qarzdorligi undirilishi

belgilangan.

Undiruv garovga qo'yilgan "Toyota Prado", "Captiva", "Cobalt" va "Damas" rusumli avtovtransport vositalariga qaratilgan. Ushbu ijro hujjati Majburiy ijro byurosining Urgut tumani bo'limi ish yurituviga kelib tushgach, ijro harakatlari kirishilgan hamda qarzdor bir necha marotaba ogohlantirilgan.

Ijro harakatlari davomida davlat ijrochisi tomonidan berilgan ixtiyorli muddat o'tganligi sababli agrofirmanning "Toyota Prado" rusumli avtovtransport vositalari xatlandi hamda "E-ijro aksion" yagona elektron savdo maydonida 352 million so'mga soltilib, kredit qarzini yopishga qaratildi. Endi navbat "Captiva", "Cobalt" va "Damas"ga.

Mal'umot uchun, joriy yilning o'tgan ikki oyida Majburiy ijro byurosining viloyat boshqarmasiga 391 milliard 925 million so'm undiruv summasi bilan 31180 ta ijro varaqasi kelib tushgan. O'tgan yilgi goldiq bilan ijroga qaratilgan hujjatlar soni 275089 tani tashkil etdi. O'tgan ikki oyida byuro tomonidan 45767 ta ijro varaqasi bo'yicha yakun qaror qabul qilinib, amalda 16624 ta holatda 228 milliard 519 million so'm undirilgan.

Bitta ovoz 30 ming so'm

tashabbusli budget yo'chikka, yo'pukkami?

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Ushbu tartib har bir viloyatda bitta tuman yoki shaharda joriy qilindi. 2022-yil 1-yanvardan boshlab esa mamlakatning barcha tuman va shaharlarda yo'iga qo'yildi.

Ha, hududlar infratuzilmasi uchun 2021-yilda respublika budget mablag'lari hisobidan shahar va tumanlar budgetlariga qo'shimcha 92,7 milliard so'm ajratildi.

Keyingi yildan ushbu mablag'lari tuman va shaharlardan budgetlari parametrlarida nazarda tutildi. Bundan tashqari, 1-iyuldan boshlab jamoatchilik fikri asosida shakkallantirilan tadbirlarni moliyalashtirishga ajratiladigan tuman va shaharlardan budgetlari qo'shimcha mablag'larning eng kam miqdori 10 foizdan 30 foizgacha oshirildi.

Albatta, o'tayotgan yillar davomida bu yo'nalishda yana turli o'zgarishlar bo'ldi. Masalan, "Mening yo'lim" loyihasi "Tashabbusli buyjet"ning birinchi mavsumiga qo'shib yuborildi. Mayli, bular endi boshqa masala. Muhimi, fuqarolarga mahalla, aholi punkti va tumandagi muammolarini hal qilish bo'yicha loyihalar bilan openbudget.uz platformasi orqali murojaat qilish (hal qilish emas, unutmang!) imkoniyatidagi.

BUDJET AMALDORLARNING PULI EMAS

Iqtisodchi telegram kanalida yozilganidek, "Tashabbusli budget" amalda hokimliklarning menejment sifati past bo'lgani uchun hududlarning real muammolarini to'lish va tuzatishga qaratilgan loyiha. U fuqarolar orasida "Davlat pulni qayerga starflashi yaxshiroq?" degan savonlari, muhokamani olib kirolgani bilan e'tirofga loyiq.

Rost, "Tashabbusli budget" orqali odamlar o'z ovozining ahamiyatini his qila boshladi. Qolaversa, davlat budgeti amaldorlarning emas, xalqning puli ekanligini tushunyapti.

Jamiyat hayotiga daxldorlikni sezayotgani, eng muhimi, ko'pchilikning bir maqsad yo'lida uyushishni o'rgangan rost. O'zaro birlashish, harakat qilish, fidoylik va jonbozlik ko'rsatish ham tashabbusli budget sabab jamiyatda yana bo'y ko'rsatmoqda.

Jamoatchilik davlat buyurtmasi asosida bajarilayotgan ishlari - ta'mirlashdan tortib bonyodkorlikkacha nazorat qilishni o'ruguayapti. Bunga faqat va faqat tashabbusli budget sabab bo'ldi.

Bundan buyon "Tashabbusli budget" doirasidagi loyihalar tashabbuskorlar, mahalla raisi va faollarining ish sifati yuzasidan roziligi olinganidan keyingina foydalanishga qabul qilish tartibi joriy etiladi. Rejalashtirilayotgan bu yangilik fikr yuritilayotgan loyihaning ahamiyatini yanada oshirishi, jamoatchilik nazoratinining kuchayishga xizmat qilishi shubhasiz.

OVOZ YIG'IB USTAMA OLASAN YOKI ISHSIZ QOLASAN

Qizig'i, dastlabki vaqtarda tashabbusli budgetdan mablag' ajratilishiga erishish uchun odamlar nimalar qilmadi? O'zi mohiyatan olganda o'zimiz to'lagan to'lovlardan qo'shilgan puldan qilinadigan xaratnatning 5 foizini olish emas, bu haqda fikr dildirish imkonni beldi. Mayli, yillar davomida qiyinab kelayotgan masalalarimizga orttirilgan mablag'dan 30 foiz ajratilayotgani alohida masala. Asosiy gap o'sha 5 va 30 foizlik borasidagi fikrlari yo'naltirish yoki

o'zlashtirishga urinishlarda.

Qaysi nom bilan atalmasin, ovoz berish jarayonida ikki yo'l bilan aralashishni kuzaish mumkin. Birinchisi, amaldorlar tomonidan majburlash bo'lsa, ikkinchisi joylarda odamlarni qiziqitirish bilan bog'liq.

Zotan, aynan shu maqsadda 2022-2023-yillarda katta-katta "hangomalar" bo'y ko'satgandi. Shu sabab Prezidentning tegishli qaroriga ko'ra, tashabbusli budgetlashtirish jarayonlari doirasida budjet tashkilotlarning rahbar xodimlari tomonidan majburiy ovoz yig'ish bo'yicha xodimlarga topshiriq berishlari taqiqlanadi.

Ming afsuski, davlat rahbari imzolagan huqiqat bo'lishiga qaramay, o'tgan yillardagi "tajribalar"dan hali-hamon saboq olinmayapti. Oqibatda "Tashabbusli budget" doirasida ovoz berish boshlangandan yana majburiy ovozlar yig'ilayotgani haqidagi xabarlarga duch kelyapmiz. Masalan, ayrim maktablarda o'qituvchilariga nechtadir ovoz yig'ish majburiyati qo'yilgani, o'sha ovozni topmasa, shunga yarasha pul berish talab etilayotgani yangilik bo'lmay qoldi.

Umuman, budget tashkilotlarda bu mafsalalohida nazorat talab qilmoqda. Biroq tegishli idoralar, xususan, mehnat inspeksiyalari negadir suket saqlab turishibdi.

O'sha tashkilot rahbarini ham tushunish kerak, agar shu safar g'olib bo'lib, ta'mirlash yoki qo'shimcha bino qurish imkonini qo'lg'a kiritmasa, bu masala yaqin 8-10 yilda hal bo'lmaydi. Bu fikrni aytilishga shoshilmang, zotan maqsad ezgu bo'lgani bilan noqonuny visitani hech qanaqasiga oqlab bo'lmaydi.

OVOZINGIZNI SOTMANG!

Joriy yilgi mavsumda loyiha doirasida ovoz berish 16-martdan boshlandi. Xabarlarga ko'ra, har bitta tashabbus uchun maksimum 1 milliard 360 million so'm mablag' so'rashtum.

Shu sabab so'nggi 10 kun ichida "bitta ovoz uchun 30, 40 ming so'm pul" degan gap-so'zlarni deyarli hamma eshitdi. Buning uchun yog', salqin va energetik ichimlik hamda boshqa takliflar ham topildi.

E'tiborli, joriy mavsumda "bir fuqaro - bir ovoz" prinsipi o'tilganligi har bir ovozning nafaqat narxini, shu bilan birga qadrini ham oshirdi. Chunki o'tgan yilda 4-5 ta ovoz uchun qilingan taklif, joriy yilda bitta ovoz uchun beriliyapti.

Demak, tizim takomillashtirilyapti. Yana o'sha gap, odamlar o'z ovozining qiyamini, qadrini yanada chuqur his qilib boyapti. Zotan, endi tanlov qilib bo'lmaydi. Masalan, ikkita sim kartangiz bo'lsa, birini tug'ilgan joyingiz, ikkinchisini boshqalar uchun ishlata olmaysiz. Aqli ovoz berishga to'g'ri keladi.

Ya'ni, siz uchun ta'limgagi muammo muhimmi yoki sog'iqliqi saqlash, balki yo'ldagi ahvollarni ko'proq qiynar. Anqlik kiritib olgach, o'ylab ko'ring, berayotgan ovozingiz foydali bo'lishiga ko'zingiz yetadimi? Albatta, bu tavsya, xolos. Hech qaysi jihat bilan oqizqmasdan, 40 ming so'mni olgach, to'g'ri kelgan loyiha ovoz berayotganlar istagancha topildi. Basharti shunday ekan, "e, shu open budgetchilar ham jonga tegdi yoki bu g'irrom-ku, nega boshqalarning ovozini sotib olib yutib ketishyapti", deydiganlarga javob shu: ko'nglingizni

yil 14-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Baro Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minquolvich notarial idorasida marhum Zokirov Xayrullova (2015-yil 19-sentabrdan vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minquolvich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Baro Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Ishniyazova Ochiloy Turniyozovnaga (2022-yil 7-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov

keng qiling, xohlamaysizmi, ovoz bermang. Qonunga zid emasmi, qandini ursin!

AHOLISI KAM HUDUD (TASHKILOT)-CHI?

"Tashabbusli budget" haqida gap ketganda aksariyat hollarda shu savol o'rta ga chiqadi.

Budjetnomha va budget loyihasiga ko'ra, 2024-yilda tashabbusli budgetlashtirishga 7 trillion so'm ajratish rejalashtirilgan.

Qiziq tarafi, jarayonlarda g'olib deb topilmagan, lekin ko'p ovoz olgan loyihalarni moliyalashtirish uchun qo'shimcha Maktabgacha va mifik tab'limi vazirligi orqali 164,2 milliard so'm, Sog'iqliqi saqlash vazirligi orqali 26,6 milliard so'm, Iqtisodiyot va moliya vazirligi orqali 2,1 trillion so'm mablag' taqsimlangan.

YANA AJOYIB BIR TAKLIF

"2023-yilda "Ochiq budget" axborot portaliiga kelib tushgan va har biri 1,5 mingdan ortiq ovoz o'tplagan, lekin g'olib deb topilmagan loyihalar tahillari asosida jihozlash bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirish xarakatlariga 2024-yil Davlat budgeti loyihasida mablag'lar ko'zda tutish".

Demak, mavsumda ko'p ovoz olib g'olib bo'Imaganlarda imkoniyat yo'qolmaganini amalda ko'rish mumkin bo'ladi.

Bunga "Ochiq budget" axborot portaliga qo'shimcha foydali shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarorini qo'shimcha qilish mumkin.

Hujat bilan fuqarolar tashabbusi jamg'armasida 1 milliard so'mdan kam mablag' shakllangan tuman va shaharlardan qo'shimcha 57,9 milliard so'm, "Ochiq budget" axborot portaliga qo'shimcha 59,5 milliard so'm mablag' ajratilgan.

Umuman, "Tashabbusli budget"ga start berilganda buyon har mavsumda mag'lib bo'lgan, ammo 2 mingdan ortiq ovoz olgan tashabbuslarga ham istisno tariqasida mablag' ajratilmoqda. Lekin biror hujjatda doim shunday bo'lishi belgilanmagani to'la ishonch bermaydi.

Umid shuki, Iqtisodiyot va moliya vazirligi mutasaddilari joriy yilda bir fuqaro bir ovoz tamoyilini ishlatisib ko'rib, undan keyin katta mexanizmlarni yoki kam fuqaro yashaydigan huddulgara boshqa yo'llarni o'yab ko'rilishni aytilishgan.

Kutamiz.

XULOSA

Aslini olganda qayd qilinganlarning barchasi budget taqsimoti bilan bog'liq. Joylardagi muammolar yechimida fuqarolar ishtirotini kengaytirib borish, ya'ni "Tashabbusli budget" uchun ajratilayotgan mablag'larni bosqichma-bosqich ko'paytirish lozim.

Bundan tashqari, joylardagi og'riqli mafsalalar yechimi faqat shu loyiha bog'lanib qolmagan. Ularga mablag' ajratishni mahalliy hokimlikdan qattiq turib so'rash, bu borada qilingan, rejalashtirilgan ishlari bo'yicha hisobot mexanizmlari shakllanishi zarur.

Demak, kuzda bo'ladigan sayovlarni kutamiz...

Y.MARQAYEV tayyorladi.

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasini viloyat hududiy boshqarmasida jamoatchilik vakillari bilan ochiq muloqot bo'lib o'tdi.

Davlat xaridlari bo'yicha tanlovlarida kamchilik aniqlandi



Tadborda hududiy boshqarma tomonidan 2023 yilda va joriy yil boshidan buyon monopoliyaga qarshi kurashish, sog'lom raqobatni ta'minlash hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirilgan ishlari to'g'risida ma'lumot berildi.

Hududiy boshqarma boshlig'i vazifasini bajaruvchi M.Hamroyevning qayd etishicha, o'tgan yil davomida boshqarmaga jismoniy va yuridik shaxslardan 2000 ga yaqin murojaat kelib tushgan bo'lib, ushbu murojaatlarni o'rganish natijalari bo'yicha 5 milliard so'mga yaqin mablag' tadbirkorlar va iste'molchilar foydasiga hal etilgan. Jumladan, davlat xaridlari nazorati bo'yicha 3000 ta tanlov savdolari o'rganib chiqilganda 755 ta kamchilik aniqlangan.

- Misol uchun, 36 holatda tanlov ishtirokchilari o'rtasida afillanganlik holati qayd etildi, - dedi M.Hamroyev. - Ushbu yo'nalishda 38 ta tadbirkorlik sub'ektidan tanlov savdolari qonun buzilgani yuzasidan kelib tushgan murojaatlarni o'rganilganda, 37 holatda "Raqobat to'g'risida"gi qonun talablarini buzilish holatlari aniqlanib, ularni bartaraf etish yuzasidan ko'rsatmalar berildi. Tabiiy monopoliya sohasida esa yuridik shaxslardan 26 ta murojaat kelib tushdi va mazkur murojaatlarni asosida tadbirkorlik sub'ektlarining 8 milliard 700 million so'm mablag'i qayta hisob-kitob qilinib, qaytarilishi ta'minlandi.

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama faoliyatini tartibga solish yo'nalishida "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun talablaridan kelib chiqib, "ISSIQLIK MABALI" davlat unitar korxonasi Nurobod filiali tomonidan iste'molchilariga issiq suv va issiqlik energiyasini belgilangan me'yordagi istekasida yetkazib berilishi o'ganilganda 2000 nafarga yaqin iste'molchiga yetkazib berilmagan issiqlik energiyasi uchun to'lov yozilgani aniqlanib, 210 million so'm pul mablag'i qayta hisob-kitob qilinib, qaytarilishi ta'minlandi.

Hududiy boshqarma boshlig'i o'rinosari J.Ashurovning ma'lum qilishicha, joriy yil boshidan buyon yuridik va jismoniy shaxslardan tushgan 350 dan ziyyod murojaatning 84 foizi ijobjai hal etilgan. Bu murojaatlarining asosiy qismi kommunal xizmat, savdo va umumiy ovqatishish shoxobchalar faoliyatini bilan bog'liq bo'lgan. Shu davrda 1 milliard so'mga yaqin mablag' qayta hisob-kitob qilinib va 120 nafar iste'molchining huquqlari tiklandi.

- Belgilangan tartibda tegishli idoralar bilan hamkorlikda 27 ta AYOQShda iste'molchilar huquqlarining ta'minlangani o'rganilganda 13 ta shoxobchada sifatsiz benzin sotilayotgani aniqlandi va 200 million so'm mablag' qayta hisob-kitob qilindi, - deydi J.Ashurov. - Shuningdek, 100 ga yaqin dorixonha faoliyatini o'rganilib, 43 tasining egalariga nisbatan ma'muriy chora ko'rildi. Bundan tashqari, viloyatdagagi 141 ta savdo shoxobchasi 3300 dan ortiq iste'molga yaroqsiz oziq-ovqat mahsulotlari sotilayotgani aniqlandi.

Ochiq muloqotda qo'mita va hududiy boshqarmalar faoliyatini o'chiqligini ta'minlash yuzasidan e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlar ko'laminu kengaytirish va dolzarbligini ta'minlash bo'yicha jamoatchilik va OAV vakillarining takliflari hamda O'zbekiston iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlar federatsiyasi vakillarining hamkorlikka oid tavsiyalari tinglandi.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasida marhum Hikimova Hikmatga (2023-yil 9-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu



Tug'ilgan kun

kibrmi, bayrammi yoki xarajat?

qo'shni mahallaga arz qildi, onasi-ning tug'ilgan kuniga bu tomoshani uyushtirgan farzandlarga biror chora ko'ildimi, yo'qmi, bilmadim, ammo bunday marosimlar yana davom etayotganini ko'ryapmiz.

To'g'ri, hamma ham ota-onasi, farzandi yoki yaqinlariga dil izhorini go'zal tarzda ifoda etishni, bu unutilmas taassurot qoldirishini istaydi. Yoki ayrimlar kutilmagan sovg'a uyuşdırır, yaqinlarini lol qoldirmoqchi bo'lismadi. Mayli, orzu-havasingizga yeting! Faqatgina bu ishingizdan boshqalar aziyat chekmasin, odamlarning tinchi ni buzib, g'ashini keltirmang!

Otasiga mashina sovg'a qilayot-ganlar ham yarim tunda mahallaga signal chalib kelishi kerak emas-ku. Bunday amallarni birov bilib, birov bilmay qolishi, oila davrasida o'tkazish kerak emasmi astida?

"TUG'ILGAN KUNIMDA OTA-ONAMGA MINNATDORLIK BILDIRAMAN"

Dushsha kuni edi. Ishxonaga kelib, haftalik rejalarini qayd qilib qo'yayotganimda telefonim jiring-lab qoldi. Yaqin qadrondonim ekan. Kayfiyati chog', salom-alikdan so'ng "Bugun tushlikda uyda kutaman, ishingiz ko'p bo'lsa, kechga kelsangiz ham bo'ladi", dedi. Taklifni eshitdim-u bugun uning tug'ilgan kuni ekani yodimga tushdi.

– Uzr, aka, aslida biz qo'ng'iroy qilib tabriklashimiz kerak edi, muborak bo'lsin, – dedim xijolat chekib.

– Hechqisi yo'q, bilasiz-ku, tabrikni yuzma-yuz eshitishni yaxshi ko'ra-man, oqolganini kelganingizda aytasiz. Kutaman-a, ishim ko'payib ketdi, deb bahona qilmang, tonggacha bayram.

Borishga va'da berib, telefoni o'chirishim bilan hamkasbin xonaga kirib keldi.

– Aka tug'ilgan kunga taklif qildimi? – deb so'radi u hali stolga qo'yishga ulgurmagan telefonimga ishora qilib va javobimni ham kutmay gapida davom etdi. – Har tug'ilgan kunda shu bo'lar takror. Nima qila-miz – tushlikda boramizmi yoki kech-qurunmi?

– Bormasak-chi, xafa bo'ladi? Bugun dushanba, ish ko'p, deb ba-hona qilsak, – dedim javob qanday bo'lishini bilib turmas-da.

– Akani bilasiz-ku, xafa bo'ladi.

Vaqt topib, borib kelmasak bo'lmay-di-yov.

Ko'philigimiz uchun tanish holat. Ba'zida tug'ilgan kun sohibining o'zi yoki yaqinlari shunday taddbirlarga taklif etishadi. Tug'ilgan kun ulug' yosh yoki biror bir muhim sana bilan bog'liq bo'lsa-ku, yaxshi – dildagi ezgu niyatlarigizni borib aytib ke-lasiz, o'sha insonning hayot yo'li dan ibrat olasiz, hech bo'lmaganda, xulosa qilasiz. Yana bir yaxshi tomo-ni qarindosh-urug', do'st-yor bilan ko'rishasiz. Lekin tug'ilgan kunlarning hammasi ham shunday emasda.

Ayrim kishilar o'zini, atrofida kim-lar borligini boshqalarga ko'rsatib qo'yish, manmanlik, kibr uchun har yili tug'ilgan kunin nishonlashni yax-shi ko'radi. Dabdaba, davra kichikroq to'oday bo'ladi. Mehmonlar esa do-imgi "kunda-shunda"lar, gap-so'zlar ham bir xil – tug'ilgan kun sohibini madh etish, uning sha'niga rost-yolg'on bo'lsin, gapirish. Odamlar shundan zavq olarmikan-a?!

– Tug'ilgan kun men uchun odat-dagi kunlardan biri, hech kimdan tabrik, sovg'a kutmayman, – degandi ziyo'lillardan biri. – Faqatgina bir odatim bor – o'sha kuni ertalab ota-onamga qo'ng'iroy qilib yoki o'zim borib, ularga minnatdorlik bildiraman. Kunni oila davrasida o'tkazaman. Bolalarim, nabiralarimga yoshlik yillarim haqida gapirib bera-man. Menga boshqalarning xush-mod va maqtovlaridan shu afzal.

Yana bir taniqli insondon tug'ilgan kunini mehribonlik uyida nishonlashni haqida eshitgandim. Bolalarning turli shirinlik va sovg'alar olib xur-sand bo'lganini ko'rib, zavqlanaman, yoshim yana bir yilga ulg'ayganini emas, yosharganimi his qilaman, ruhim yengillashadi, degandi u.

Tug'ilgan kуни bu tarzda nishon-lashni balki ibrat sifatida ko'rsatish mumkindir. Ammo hayotimizning har bir kuni, har bir lahzasi g'animatligini hisobga olib, faqat tug'ilgan kunda emas, har kuni ezgu ishlari qilishga, xayri yumushlarga bosh qo'shsak, qanday yaxshi.

BIR YOSHLI GO'DAKNING TUG'ILGAN KUNI

Bilmadim, hozir bormi-yo'qmi, bir necha yillar avval televizorda tug'il-gan kun bilan tabriklash dasturi bor

Mulohaza uchun mavzu

edi. Ma'lum bir to'lovnı qilib, tug'il-gan kishining surati, ism-sharifini yozib bersangiz, televideniye orqali tabriklashardi. Adashmasam, hozir faqat radiodi shunday dastur qolgan. Ana shu dasturlarda ko'p hollarda bir, ikki yoshti go'daklarga ham dil izhorlari bildirilib, keyin uzundan-uzun ro'yxat o'qilardi – otang, onang, bo-bong, baving, ammang, xolang...

Bolani tabriklash uchun besh-o'n

soniya, yaqinlarining nomini o'qish

uchun esa bir daqiqa vaqt ketardi. Bu ko'proq tabrikdan ko'ra, o'sha oila a'zolarining nomini televizordan e'lon qilishga o'xshab ketardi.

Bugun go'dak uchun restoran va

kafelarda o'tkazilayotgan tug'ilgan

kun marosimlari haqida eshitib, shu

holat esimga tushdi.

Ertalab qo'shni bilan birga ish-

ga kelayotganimida qaysi bankda

mikroqarz foizi pastligini so'rab qoldi.

– Mikroqarz olib nima qilasiz,

shusuz ham uying krediti oylikning

barakasini uchiriyapti-ku, – dedim.

– Nimasini aytasiz, qo'shni, le-

kin olmasam bo'lmaydi-yov – dedi

qo'shni chucher xo'srinil. – Kelasi

hafta nevaramizning tug'ilgan kuni.

Qudalarimiz, kelinimizning qarin-

dosh-urug'i kelar ekan. Uydagilar

tug'ilgan kуни kafeda o'tkazamiz

deyapti. Borib gaplashsak, odam

boshi falon so'm. Shunga mikroqarz

olsammi, deb turibman. Bugun ish-

xonadan moddiy yordam so'rayman,

berishmasa, boshqa ilojim yo'q, foizi

balab bo'lsa ham qarz olaman.

Qo'shniimga tug'ilgan kуни uyda

yaqinlari bilan o'tkazishni, shunday

qilsa, ro'zg'origa yengil bo'lishini

maslahat berdim-u bunga oila a'zolari

ko'nadimi yoki yo'qmi, bunisini o'yla-

mabnam.

Kecha kechqurun qo'shniimga

xotini uyimiza chiqib, nevarasining

tug'ilgan kуни shahardagi restoran-

da nishonlashayotganini aytib, ayo-

limni taklif qilibdi. Bu gapni eshitib,

o'yanib qoldim – qo'shniimga ishxo-

nasidan moddiy yordam so'rayman,

berishmasa, boshqa ilojim yo'q, foizi

balab bo'lsa ham qarz oldimi?..

Shunday paytlarda biz hali tug'ilgan

kun, oilaviy marosimlarni ixcham, kam-

chiqim qilib o'tkazolmayapmiz, to'ylari-

miz haqida gapirmasak ham bo'lar,

degan o'ya boraman. Ulug' ma'rifat-

parvar Mahmudxo'ja Behbudiy bir asr

aval "bizni xarob qiladigan illat to'y

va aza marosimlaridir", deb aytganda

shularni nazarda tutganmikan?..

G'olib HASANOV.



Samarqandda

**4000 yil
umr ko'radigan
daraxtlar bor**

IKKI BO'LAKLI GINKGO - GINKGO BILOBA

Vatan: Xitoy, Yaponiya. Ginkgo ikki yuli, relikt yirik daraxt. Balandligi 40, tana diametri 3-4,5 metr, 1000 yilgacha yashaydi. Samarqandda 1873-yillarda ekilgan. Hozir uning asriy 2 tupi o'sib turibdi: bir tupi Samarqand davlat universiteti Biokimyo kampusi hovlisida, ikkinchi tupi esa Samarqand shahar hokimiyati hovlisida. Ushbu daraxtlar har yili urug' beradi, urug'lari yaxshi unadi. Xitoy va Yaponiyada madaniy navlari yaratigan, mevali daraxt sifatida foydalilanadi, bargllari dorivorlik xususiyatiga ega. 20° - 25°C sovuqqa ham chidaydi.

BOTQOQ SARVI - TAXODIUM DISTYCHUM

Vatan: Shimoliy Amerika, Meksika. Bo'y 40, tana aylanasi 3 metrgacha yetadigan, kuzda bargini to'kuvchi, ajoyib manzaralari relikt daraxt. Botqoqlillarda, daryo, ko'l bo'yalarida o'sadi, qozoqsimon havoyi yer uesti ildizlar hosil qiladi. Samarqandda 1874-yillarda ekilgan. Hozirda shahar Markazi istirohat bog'idiagi ko'l hududida 5 tupi o'sib turibdi. Sovuqqa chidamli, -25°C darajada ham deyarli zararlanmaydi. Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti hovlisida 34 yoshli tupi o'smoqda. Nihoyatda serhosil, har yili qubbalar hosil qiladi.

GIGANT SEKVOYYADENDRON, MAMONT DARAXTI - SEQUAJADENDRON GIGANTEUM

Vatan: Shimoliy Amerika, Kaliforniya. Sek- voyyadendron bo'y 130-135, tana aylanasi 16-20 metr, yirik, doimo yashil relikt daraxt. 4000 yilgacha yashaydi. Samarqandda 1872-yilda ekilgan. Hozir yagona asriy tupi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti hovlisida o'smoqda, bo'y 7-8 metr, urug' hosil qilmaydi. 25-27 yoshli 2 tupi shahar ko'kalamshtirish idorasi hovlisida va Mirzo Ulug'bek ko'chalarli chorrahasida o'sib turibdi.

LIVAN KEDRI - SEDRUS LIBANI

Vatan: Kichik Osiyo – O'rta yer dengizi bo'y 10-11 metr, 3000 yilgacha yashaydigani ajoyib manzaralari daraxt. Yog'ochi juda qattiq va qimmatli qurilish materiali hisoblanadi. Samarqandda 1874-yilda ekilgan. Hozir shaharda yagona asriy tupi saqlangan, bo'y 18-20, tana aylanasi 3 metr bo'lib, Samarqand davlat universiteti bosh binosi hovlisida o'sib turibdi. Har yili hosil beradi, urug'lari yaxshi unadi. Biokimyo instituti kampusida ham 25-27 yoshli, 9-10 metrli tupi o'strilmoqda. 20° - 25 °C sovuqqa ham chidaydi.

YURAKBARG JUKA - TILIA SORDATA

Vatan: Markazi va G'arbiy Evropa. Bo'y 22, tana yo'g'onligi 1 metr. Xushmanzarali daraxt. Shahrimizga 1875-1878-yillarda keltirib ekilgan. Bir nechta asriy tuplari Samarqandning Amir Temur, Mahmud Qoshg'arly ko'chalarida, Samarqand davlat universiteti bosh binosi hovlisida, shahar istirohat bog'ida o'sib turibdi.

PENSILVANIYA SHUMTOLI (QORASHUMTOL) - FRAXINUS PENSYLVANICA

Vatan: Yevropa. Yirik manzaralari daraxt, Samarqanda 1875-1880 yillarda keltirilgan. Hozir Samarqand davlat universitetining Biokimyo instituti kampusida 5 tup, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur ko'chalaridagi hovlilarda 10 dan ortiq, bo'y 20-22 metrgacha bo'lgan tuplari o'sib turibdi. Urug'idan yaxshi ko'payadi, juda serhosil.

QO'NG'IR EMAN - QUERSUS ROBUR

Vatan: Sharqiy Yevropa. Bo'y 20-25, tana aylanasi 3 metrgacha yetadigan manzarali va yog'ochi qimmatli, 300-400 yil yashaydigan daraxt. Samarqandda 1874-yillarda ekilgan. Hozir shaharda o'nlab asriy tuplari o'sib turibdi. Ular Samarqand davlat universiteti bosh binosi, Abdurahmon Jomiy, O'zbekiston, Ibn Xoldun, Alisher Navoiy ko'chalaridagi hovlilarda saqlangan. Umumiy holati ancha yaxshi. Har yili urug' beradi.

**Ulug'bek OCHILOV,
Samarqand davlat universiteti botanika kafedrasи doktoranti.**

Kitobxonlik madaniyati oilada shakllanadi



Ma'lumotlarga ko'ra, umuman kitob o'qimay-digan insonlarning 43 foizi qashshoqlikda ya-shaydi. Savodli insonlar orasida esa qashshoqlikda yashaydiganlar 4 foizni tashkil etadi. Kitob o'qish asabni tinchlantirishda eng samarali usul uskan. Atigi olti daqqaqita kitob o'qish asabiyash-ishga barham beradi. Kitob o'qish jarayonida o'quvchi qahramonlarning quvchon va tashvish-lariga sherik bo'ladi. Kitob mutolaasi nafaqat so'z boyligini ko'paytiradi, balki savodxonlikni ham oshiradi. Musiqa tinglash jarayonida mu-siqachining uslubi tinglovchiga o'tgani singari yozuvchining uslubi ham o'quvchining yozish uslubiga ta'sir ko'rsat



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



2024-yil 28-mart, payshanba,
38 (23.915)-son

**KUN
HIKMATI**
Salom
berishni
odat qilish
ma'naviyatning
birinchi belgisi

Zarafshon

www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://t.me/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz